

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI



ILMIY
AXBOROTNOMA

2023

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI

- НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО
ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА
- SCIENTIFIC BULETTIN OF
NAMANGAN STATE UNIVERSITY



ISSN:2181-0427

journal.namdu.uz





Bosh muharrir: Namangan davlat universiteti rektori S.T.Turg'unov

Mas'ul muharrir: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor Sh.N.Ataxanov

Mas'ul muharrir o'rinbosari: Ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i O.Imomov

TAHRIRHAY'ATI

Fizika-matematika fanlari: akad. S.Zaynobbiddinov, akad. A.A'zamov, f-m.f.d., prof. B.Samatov, f-m.f.d., dots. R.Xakimov, f-m.f.n., dots. B.Abdulazizov, f-m.f.n., dots. A.Xolboyev.

Kimyo fanlari: akad. A.To'rayev, akad. S.Nigmatov, k.f.d., prof. Sh.Abdullayev, k.f.d., prof. T.Azizov, k.f.n., dots. T.Sattorov, k.f.n., dots. A.Hurmamatov., PhD. D.S.Xolmatov.

Biologiya fanlari: akad. K.Tojibayev, akad. R.Sobirov, b.f.d., dots. A.Batashov, b.f.d. N.Abdurahmonov, b.f.d., dots. F.Kushanov, b.f.d. A.Kuchboyev, b.f.n., dots. D.Dexqonov.

Texnika fanlari: t.f.d., prof. A.Umarov, t.f.d., prof. S.Yunusov.

Qishloq xo'jaligi fanlari: g.f.d., prof. B.Kamalov, q-x.f.n., dots. A.Qazaqov.

Tarix fanlari: akad. A.Asqarov, s.f.d., prof. T.Fayzullayev, tar.f.d, prof. A.Rasulov.

Iqtisodiyot fanlari: i.f.d., prof. N.Maxmudov, i.f.d., prof.O.Odilov.

Falsafa fanlari: f.f.d., prof. M.Ismoilov, f.f.n., Z.Isaqova, f.f.d., G.G'affarova, f.f.n. N.Zaynobbiddinova, f.f.n., dots. T.Ismoilov, PhD. A.Abdullayev.

Filologiya fanlari: fil.f.d., prof. N.Uluqov, fil.f.d., prof. H.Usmanova, PhD. H.Solixo'jayeva, PhD. U.Qo'ziyev, PhD. H. Sarimsoqov, fil.f.d., N.Dosboyeva, fil.f.n., dots. S.Misirov.

Geografiya fanlari: g.f.d., dots. B.Kamalov, g.f.d., prof. A.Nigmatov.

Pedagogika fanlari: p.f.d., prof. U.Inoyatov, p.f.d., prof. B.Xodjayev, p.f.d., prof. O'.Asqarova, p.f.n., dots. M.Nishonov, p.f.n., dots. A.Sattarov, p.f.n., dots. M.Asqarova, p.f.n., dots. Sh.Xo'jamberdiyeva, p.f.n., dots. S.Abdullayev.

Tibbiyot fanlari: b.f.d. G'.Abdullayev, tib.f.n., dots. S.Boltaboyev.

Psixologiya fanlari: p.f.d., prof Z.Nishanova, p.f.n., dots. M.Maxsudova.

Texnik muharrir: N.Yusupov.

Tahririyat manzili: Namangan shahri, Boburshox ko'chasi, 161-uy

Faks: (0369)227-07-61 **e-mail:** info@namdu.uz

Ushbu jurnal 2019 yildan boshlab O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosati qarori bilan fizika-matematika, kimyo, biologiya, falsafa, filologiya va pedagogika fanlari bo'yicha Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

"NamDU ilmiy axborotnomasi – Научный вестник НамГУ" jurnali O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining 17.05.2016-yildagi 08-0075 raqamli guvohnomasi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA) tomonidan 2020-yil 29-avgust kuni 1106-sonli guvohnomaga binoan chop etiladi. "NamDU Ilmiy Axborotnomasi" elektron nashr sifatida xalqaro standart turkum raqami (ISSN-2181-1458)ga ega NamDU Ilmiy-texnikaviy Kengashining 2023-yil 10-yanvardagi kengaytirilgan 1-sonli yig'ilishida muhokama qilinib, ilmiy to'plam sifatida chop etishga ruxsat etilgan (Bayonnoma № 1). Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma'lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI 2023



МЕТОДИКА ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ НАВЫКОВ СТУДЕНТОВ С ПОМОЩЬЮ ДИДАКТИЧЕСКИХ ИГР

Ибрагимова Марьямхан Гуломовна

преподаватель Кокандского государственного педагогического института
ibragimovamaryam@gmail.com

Аннотация. В статье особенно несопоставима роль реформы образования и его модернизации в формировании профессиональных навыков студентов. Технологические занятия, организуемые в ходе учебного процесса, служат направленностью на формирование профессиональных навыков студентов. Подчеркивается, что выполнение этой задачи требует, чтобы процесс дидактических игр осуществлялся на необходимом уровне, а профессиональные умения студентов формировались с помощью самостоятельного мышления.

Ключевые слова: студент, профессия, мастерство, дидактическая игра, обучение, цель, процесс.

THE METHOD OF FORMING PROFESSIONAL SKILLS OF STUDENTS WITH THE HELP OF DIDACTIC GAMES

Ibragimova Maryamkhan Gulomovna teacher of
the Kokand State Pedagogical Institute
ibragimovamaryam@gmail.com

Annotation. In the article, the role of education reform and its modernization in the formation of students' professional skills is especially incomparable. Technological classes organized during the educational process serve as a focus on the formation of students' professional skills. It is emphasized that the fulfillment of this task requires that the process of didactic games be carried out at the required level, and that the professional skills of students be formed with the help of independent thinking. **Key words:** student, profession, skill, didactic game, learning, goal, process.

Kirish

Maktab amaliyotida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish muhim vazifalardan biridir. Maktab o'quvchilarida ikkilanish ishonchsizlik kabi tuyg'ular ustunligi tufayli, ular kasb tanlashlarida maslahat olishga oshiqadi. Ayni mana shu vaqtda o'quvchilarning eng yaqin kishilari to'g'ri y'ol ko'rsatishi ularning kasb tanlashlariga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlaydi. Bu borada ota-oadan tortib to sinf raxbarigacha, do'stlaridan tortib to kasb-hunar maktabi o'qituvchilarigacha, maktab psixologidan tortib to maktab raxbarigacha, hatto turli fan o'qituvchilari, ayniqsa texnologiya fani o'qituvchilarining kasblar to'g'risida ma'lumotlar

berishlari, kasbga yoʻnaltiruvchi ochiq darslar oʻtkazishlari, tadbirlar uyishtirishlari yaxshi samara beradi. Oʻquvchilarning kasb-hunarga layoqati, qobiliyatini oʻrganish va aniqlash – kasb tanlash tizimidagi muhim bosqichlardan biri boʻlsa, ularni turli kasblar va ularni egallash yoʻllari bilan tanishtirish yana bir bosqichdir. Zero, maktab oʻquvchilarining u yoki bu kasbni tanlashlarida quyidagi omillar ham taʼsir koʻrsatadi:

- ota-onalarning daʼvati;
- oʻqituvchilarning kasbga yoʻnaltirishi;
- oʻrtoqlarga taqlid qilish;
- kasbga qiziqish;
- mashhur kishilarga taqlid qilish; - kasbning jamiyatdagi nufuzi.

Adabiyotlar tahlili

Maktab oʻquvchilarini kasbga yoʻnaltirish maktab psixologi, oʻqituvchilari, ota-onalarining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Kasb tanlashning psixologik asoslarini bilmaslik, yoshlarni kasb tanlashda rasmiyatchilik bilan yondashishga olib keladi. Bunda oʻquvchilar har bir kasbning jamiyat taraqqiyotida tutgan oʻrni muayyan ixtisos, kasbning inson psixologiyasiga qoʻyadigan talablari bu sohada ishlaydiganlar qanday fazilat va sifatlarga ega boʻlishi kerakligi haqidagi maʼlumotlarga ega boʻladilar. Demak, kasb tanlash aniq maqsad va ongli faoliyatni talab etadi. Oʻquvchilarning ongli faoliyati bu-maktab amaliyotidagi taʼlim. Taʼlim – kelajakdagi muvaffaqiyatlar garovi, uning mahsuli boʻlgan bugungi oʻquvchi kelajakda huquqiy – demokratik jamiyat aʼzosi sifatida bu jamiyat hayotida toʻlaqonli ishtirok eta olishi, zamonning bozor iqtisodiyoti qoʻyayotgan talabalariga toʻla javob bera olishi kerak.

Barkamol insonning shakllanishi uning munosib kasb-korni egallashi, jamiyatda oʻzligini namoyon etishi, komillik sari intilishi va kasbiy koʻikmalarini shakllantirilishi murakkab jarayondir. Keng maʼnoda kasbiy shakllanish deganda insonning oʻz aqliy qobiliyatlari jismoniy imkoniyatlari u yoki bu sohaga boʻlgan layoqatlari, qiziqish va intilishlari, shuningdek qadriyat va dunyoqarashlariga koʻra biror bir kasb sohasida taʼlim olish keyinchalik shu sohaga kirishib, moslasha borishi va nihoyat yillar davomida yetuk va malakali mutaxassis boʻlib yetishishi tushuniladi. Oʻquvchilarda kasbiy koʻnikmalarni shakllantirish bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biri. Mazkur muammoni hal etilishida maktab oʻqituvchilari didaktik oʻyinlardan foydalanishni toʻgʻri tanlov deb bilishmoqda. Maktab amaliyotida oʻqituvchilar oʻz tajribalarida didaktik oʻyinlardan foylanish borasida bir qator uslubiy tavsiyalarni ham ishlab chiqishgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Didaktik oʻyinlar oʻqituvchi va oʻquvchilarning birgalikdagi faoliyatlari boʻlib, bu faoliyat yordamida yangi bilim, malaka va koʻnikmalarga erishiladi, mustahkamlanadi va oʻquvchilarning dunyoqarashlari shakllantirilib, ularning qobiliyatlari rivojlantiriladi. Maktab amaliyotida oʻquvchilarning kasbiy koʻnikmalarni shakllantirish borasida didaktik oʻyinlarni tanlash va ulardan foydalanish quyidagi faktorlar bilan bogʻliq:

- oʻquv faning xususiyatiga;
- oʻrganiladigan materialning mazmuniga;
- oʻquvchilarning yosh i va ularning rivojlanish saviyasiga;

- o'quv materialini egallashga tayyorgarlik darajasiga;

- o'quvchilarni muayyan kasb-hunar egallashga tayyorlashga. Zero, biz tanlagan didaktik o'yinlar o'quvchilarning kasb tanlashiga doir bilimlar bilan qurollantirib, ularda ko'nikma, malakalar hosil qilib, jamiyatda kasbiy shakllanib, o'z orniga ega bo'lishi uchun ta'sir etishi lozim. O'qituvchi tanlagan didaktik o'yinlar o'quvchilarda kasbga doir bilimlarga ega bo'lishi uchun xizmat qilishi talab qilinadi. Shuning uchun ham o'quvchilarni kasblar olamiga doir bilimlar bilan qurollantirish hamda amaliy ko'nikma va malakalarni hosil qilishda didaktik o'yinlardan unumli foydalanish lozim. Bu jarayonda kasblarga doir o'quv va uslubiy qo'llanmalar, didaktik tarqatma materallarni qo'llanilishi ham maqsadga muvofiq. Bunday yondashuv o'quvchilarning kasb tanlash jarayonida yuzaga keladigan turli qiyinchilik, ziddiyat, to'siqlarni oldini oladi va o'quvchilarni ongli ravishda kasbga yo'llash imkoniyatini yaratadi.

Didaktik o'yinlar o'zlashtirish, tarbiyalash va rivojlantirish kabi asosiy vazifalarni bajarishi bois, o'quvchilarning kasb tanlashga tayyorgarlik darajasini ham shakllanib boradi. Chunki, o'quvchilarga kabs to'g'risidagi u yoki bu bilimlarni ma'lum qilishdan oldin, ularda bu bilimlarni idrok qilish va ma'nosiga tushunishlari uchun aniq yo'l-yo'riq yaratadi. Zero, didaktik o'yinlar amaliy-hayotiy sharoit yaratish bilan amalga oshiriladi. Bugungi kunda maktab amaliyotida o'quvchilarini kasbga yo'naltirish va kasbiy ko'nikmalarini shakllantirishda "Rasm to'plash", "Bulmacalar", "Lotto", "Domino", "Jim", "Bimasvoyning xatolari", "Kim epchil", "Zukkolar", "Mohir qo'llar", "Buni kim tayyorlaydi", "Olmani kim teradi" kabi didaktik o'yinlardan foydalanib kelinmoqda. Didaktik o'yinlar shunday o'yinlar-ki, ularning mazmunini o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlariga, qiziqishlari va hatto bilim darajalariga qarab o'zgartirilishi mumkin, bu o'qituvchilardan mahoratni talab etdi. O'yin mazmunini kengaytirish, yo'l-yo'lakay boyitib borish ham mumkin, o'qituvchining ijodkorligi tufayli o'yin mazmuni o'zgarib qolishi ham mumkin. Zero, didaktik o'yinlar ijodiy shaxsni tarbiyalashga yordam beradi, chunki har bir o'yin, uning har bir takrorlanishi topshirig'ni bajarishga yangicha munosabatda bo'lishni talab qiladi. Uni hal qilish zarurati esa ijodiy izlanishlarni keltirib chiqaradi.

Tahlillar va natijalar.

"Bir so'z bilan nomla", "Kimga nima kerak?" kabi didaktik o'yinlarda kasblar uchun kerakli nomlarni, kasb xodimlari uchun kerakli buyumlarni tanlashlari yoki aytishlari oraqali o'quvchilarda muammodagi kasbga bo'lgan kasbiy ko'nikmalar shakllantiriladi. "Kasblar olamiga sayohat", «Do'kon», «Bo'sh kelma» kabi o'yinlarda o'quvchilarning kasblar haqidagi bilimlari boyitib boriladi. Didaktik o'yin ta'limning shakllaridan biri bo'lib, o'yin jaraenida yuz bergan kechinmalar o'quvchi ongida chuqur iz qoldiradi, shuning uchun o'yin o'quvchida yaxshi hislarni, ulug'vor orzular va intilishlarni, sog'lom qiziqishlarni tarbiyalashga erdam beradi. Didaktik o'yinlar orqali bolalarning kayfiyati ko'tariladi, aqliy faolligi oshiriladi va ijodiy qobiliyatlari rivojlantiriladi. Zero, didaktik o'yinlar yangi o'quv materialini o'zlashtirish, mustahkamlash, o'quvchining ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, umumiy kasbiy tayyorgarlik ko'nikma, malakalarini shakllantirish kabi masalalarni yechishga qaratiladi. Ular yordamida o'quvchilar turli holatlardan o'quv materialini tushunish, uning negizida ma'lum ko'nikma, malaka va sifatni o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Didaktik o'yinlarda:

- didaktik maqsad talabalar oldiga o'yinli topshiriq shaklida qo'yiladi;

- o'quv faoliyati o'yin qoidalariga bo'ysundiriladi;
- didaktik o'quv materialdan o'yin vositasi sifatida foydalaniladi;
- o'quv faoliyatida didaktik vazifani o'yin vazifasiga aylantiruvchi musobaqa elementi qo'llaniladi;
- muvaffaqiyatli bajarilgan didaktik topshiriq o'yin natijasi sanaladi. intellektual, konstruktiviy o'yinlar ularni o'ylashga, fikrlashga, mantiqiy tafakkur yuritishga o'rgatadi.

Xulosalar

Ta'lim amaliyotida qo'llaniladigan amaliy o'yinlar o'z-o'zidan didaktik xususiyat kasb etadi, shu sababli ular ko'p holatlarda "didaktik o'yinlar" deb yuritiladi. Didaktik o'yinlar o'quvchi shaxsini tarbiyalash, rivojlantirish, unga ta'lim berish xususiyatlariga ega. Mavjud xususiyatlari tufayli didaktik o'yinlar ham harakatli o'yinlar kabi qadim-qadimdan xalq pedagogikasining muhim asoslaridan biri bo'lib kelmoqda.

Didaktik o'yinlar bevosita o'quvchilarda idrok, sezgi, xotira, tafakkur, nutqni rivojlantirishga yordam berish orqali ularni ma'naviy-axloqiy, aqliy, jismoniy va estetik jihatdan tarbiyalash bilan birga kasbiy ko'nikmalarini ham shakllantirishga xizmat qiladi. Zero, didaktik o'yinlar – o'rganilayotgan obyekt, hodisa, jarayonlarni modellashtirish asosida o'quvchilarning bilishga bo'lgan qiziqishlari, faolliklarini oshiradigan o'quv faoliyati turi hisoblanadi. Bu kabi o'yinlar o'quvchilar tomonidan ijtimoiy-foydali mehnat va o'qish ko'nikmalarini faol o'zlashtirishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, ulardagi turli psixologik zo'riqlashlarni kamaytiradi.

Adabiyotlar

1. Sobirovna, U. M. (2022). MODERN APPROACHES TO EFFECTIVE ORGANIZATION OF TECHNOLOGY LESSONS.
2. Sobirovna, U. M. (2022). DIDACTIC PRINCIPLES OF EFFECTIVE ORGANIZATION OF TECHNOLOGY LESSONS.
3. Sobirovna, U. M. (2022). TEXNOLOGIYA FANI MASHG'ULOTLARINI SAMARALI TASHKIL ETISHDA SHARQ MUTAFAKKIRLARI ASARLARIDAN FOYDALANISH. *World scientific research journal*, 9(1), 220-224.
4. Maryam, I., & Mukhlisa, U. The Use of Interactive Methods in the Orientation of Students to Entrepreneurial Activity. *JournalNX*, 7(03), 223-226.
5. Ибрагимова, М., Усмонова, М., & Юсуфходжаева, Ф. (2022). This article discusses the idea that preparing students for work at the current stage of education is one of the most important issues in the education and upbringing of the younger generation. *Texnologik ta'limni innovatsion tashkil etish. Общество и инновации*, 3(5/S), 153-157.
6. Hamdamova, V. (2022). THE ROLE OF HISTORICAL INFORMATION IN TEACHING TECHNOLOGY LESSONS. *Open Access Repository*, 9(11), 228-231.



	Rahimova M.O.,.....	479
91	O'quvchilarni kasbiy ko'nikmalarini didaktik o'yinlar orqali shakllantirish metodikasi	
	Ibragimova M.G',.....	482
92	Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari g'oyasi ma'naviy islohotlar davlat siyosatining ustuvor yo`nalishi sifatida	
	Isakova A.M.,.....	487
93	Boshlang'ich sinf o'quvchilaridagi o'zlashtirmaslikning sabablari va o'ziga xosligi	
	Ibragimova Sh.G.,.....	492
94	Bo'lajak pedagog psixologlarda empatik qobiliyatlarini rivojlantirishning o'ziga xosligi	
	Saliyeva D.A.,.....	498
95	Empatiya shaxsning ijobiy psixologik komponenti sifatida	
	Bo'ronova H.A.,.....	504
96	Межуровневая параметризация лингвистической креативности	
	Убайдуллаева М.Б.,.....	508
97	Astronomiyadan vaqtni o'lchash asoslarini o'qitishda "keys study" texnologiyasidan foydalanish	
	Dadaboyeva F.O,Rahimberdiyeva M.,.....	515
98	Yordamchi maktab o'quvchilarida geografiya fani orqali tarbiyani shakllantirishda sharq mutafakkirlarining tarbiya to'g'risidagi qarashlaridan foydalanish masalalari	
	Umaraliyeva B.R.,.....	519
99	Nofilologik oliygohlarda talabalarining ingliz tilida o'qish ko'nikma va malakalarini shakllantirish	
	Moydinova Sh.I.,.....	526
100	Yosh kikkobschilarning maxsus jismoniy tayyorgarligi ko'rsatkichlari	
	Ismoilov G',.....	531
101	Методы и технология отбора учебных исторических художественных произведений у будущих преподавателей истории	
	Замилова Р.Р.,.....	535
102	Бўлажак хорижий тил ўқитувчиларини зарарли ахборотлар таҳдидидан "факт-чекинг" асосида ҳимоялаш	
	Хожаева М.Н.,.....	540
103	Ta'lim jarayonida muammoli va loyihali ta'limdan foydalanish asoslari	
	Xolboyeva M.M.,.....	545
104	Tabiiy fanlarni o'qitishda steam yondashuv, o'quvchilarda tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish	
	Qo'ychiyeva Z.A.,.....	552
105	Роль мнение ума в жизни каждой личности	
	Абдусаматова Ш.С.,.....	558
106	Бўлажак профессионал таълим ўқитувчиларини автоматлаштирилган лойиҳалаш жараёнини ташкил этишга тайёрлаш	
	Химматалиев Д.О,Хакимова М.У.,.....	564